

Xakimova Zulfiya Oybek qizi

O'zDJTU, Ingliz tili 3-fakultet 2-bosqich talabasi

+998910025722

Zulfiyaxakimova5@gmail.com

Yuldasheva F.F

Ilmiy rahbari:

O'zDJTU katta o'qituvchisi

Annotatsiya : Ushbu maqolada ta'lim tizimida an'anaviy o'quv darsliklariga qaraganda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning rolining ortishi bilan bir qatorda o'qitish jarayoning tezlashishi va uni yanada sifatli va keng ko'lamli zamonaviy o'quv materiallarining kirib kelishi jarayonlari aks etgan. Shuningdek ta'limni zamon talabi darajasiga ko'tarish va yuqori malakali kadrlarning ortishida milliy va xorijiy tajribaldan foydalanish keng yoritilgan.

В данной статье отражена возрастающая роль использования инновационных технологий в системе образования по сравнению с традиционными учебниками, а также ускорение учебного процесса и внедрение более качественных и масштабных современных учебных материалов. Широко освещается использование отечественного и зарубежного опыта по доведению такого образования до уровня современных требований и увеличению высоко квалифицированных кадров.

This article reflects the increasing role of the use of innovative technologies in the educational system compared to traditional textbooks, as well as the acceleration of the teaching process and the introduction of higher-quality and large-scale modern educational materials. The use of national and foreign experience in raising such education to the level of modern requirements and increasing highly qualified personnel is widely covered.

Kalit so'zlar: Innovatsion ,an'anaviy, metod, interfaol, intellectual, pedagogic, You Tube, ZOOM ,Masofaviy o'qitish tizmi, Prezintatsiya

Hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan innovatsion texnikalar zamonida ushbu innovatsiyalarning ta'lim jarayonlariga tadbqiq qilish va ulardan foydalanib malakali va kuchli fikrlovchi yosh kadrlarni tayyorlash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.Chunki yoshlarni tayyorlashdagi asos qilib faqatgina ana'anaviy ta'lim yo'sinidangina foydalanish mutlaqo yetarli bo'lmaydi.Ilm-fan va texnikalar tinimsiz o'zgarib borayotgan ekan inson ham barcha sohalardagi bilimlarni va tushunchalarni xotirasida saqlab qolishi ham imkonsizdir. Yoshlarni bugungi zamonaviy hayotga tayyorlash va erkin qadam qo'yishida ham intellektual,ham ma'naviy jihatdan erkin

fikrlashi va o'zi tenggi yoshlar bilan bemalol raqobatlasholishida yangi bilimlarga ega bo'lish judayam muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi va talaba jarayonning asosiy ishtirokchilaridir. Shu sababli oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus ta'lim egalarini tayyorlash maqsadida yaratilgan zamonaviy o'qitish metodlarini, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning ishtiroki va o'рни benihoya kattadir. Innovatsion texnologiyalar pedagog va o'quvchi talabalar orasida yangiliklar, o'zgarishlar kiritish bo'lib uni fan doirasida muhokama qilinadi. Uni amalga oshirishda esa interfaol metodlardan doimiy ravishda unumli foydalaniladi. Interfaol metodlar-bu jamoaviy fikrlash hisoblanadi, ya'ni pedagogik usullardan biri bo'lib ta'lim mazmunining mohiyatidir. Bugungi kunda xorij tajribalaridan namunalar olish, zamon talabiga mos me'yoriy hujjatlar, metodik adabiyotlar, ilg'or xorijiy tajribaga tayangan holda ta'lim tashkilot rahbarlarini, mutaxassislarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid keng ko'lamli bilim va ko'nikmalar shakllantirish hamon dolzarb masalalardan biridir. Shu bois mamlakatimizda ta'lim tizmini takomillashtirishga oid ko'plab qarorlar va farmonlar joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son hamda "Ilm-fan sohasidagi dalat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son qarori ijrosini ta'minlash Vazirlar Mahkamasiga yuklatildi.[2] Biz bilishimiz mumkinki, butun jahon bo'yicha global muammoga aylangan COVID-19 ya'ni koronavirus paydo bo'ldi. Bu esa innovatsion texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojni har sohada yanada oshirdi. Ayniqsa ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojimiz har qachongidan ham ortdi. Ko'p o'qituvchilar o'sha davrda o'quvchilarni bilim olishdan to'xtamasliklari uchun ko'plab fanlardagi mavzularga bag'ishlab onlayn darslar va uni yanada soddalashtirib o'rgatish uchun turli xil prezintatsiyalar ishlab chiqib, uni YouTube'ga to'gridan to'g'ri joylashtirish orqali ushbu texnologiyalarning afzalliklari haqida yanada kengroq tushundilar. Ammo bu o'qitish tizmi ko'p odamlar tomonidan qo'llab quvvatlanilmadi, chunki hamon o'quvchi va talabalar ongida an'anaviy usul orqali o'rganish ko'proq samara beradi gegan tushuncha qamrab olgandi. Lekin hozir bizni ishonchimiz komilki, bu noto'g'ri talqin qilinganligi o'z isbotini topdi. Chunki butunjahon talabalari, o'quvchilari onlayn video darsliklar yanada qiziqarli va yanada osonlashtirilgan variantda berilishini tushundi va undan har doim foydalanishga moslashuv his qildi. Bundan tashqari koronavirus davrida masofaviy o'qitish tizmi yo'lga qo'yildi va bunda ZOOM orqali darslar o'tila boshladi, bu o'qitish tizmi ham bora-bora samarali usullardan ekanligi isbotlandi. Nafaqat ZOOM dasturi ta'lim jarayonida balki, xalqaro prezidentlar o'rtasidagi konferensiyalarda ham foydalanilib kelinyapti. Bunga qo'shimcha holda hozirda ko'p mamlakatlarda bu

yuqumli kasallik yo'qolgan bo'lsada onlayni darslarning, prezintatsiyalarning, masofaviy ta'limning hamda ZOOM dasturini qadri kamaymadi.

O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning eng muhim asosi bu uning mustaqil bilim olishi va ijodiy fiklashga yo'naltirishdan iborat. Shu bilan birga uning zamonaviy o'quv qo'llanmalaridan foydalana olishi va uni o'z amaliyotida qo'llay olishi, o'qituvchilar orasida ijodiy muhitni tashkil eta olish, o'sib kelayotgan yoshlarni ham zamonaviy ham ham an'anaviy ta'lim tizimidan foydalanib dars olib borilishiga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI:

1.H.T.Omonov, N.H.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat” Toshkent”Iqtisod-Moliya” 2009.19-bet

2.<https://lex.uz/docs/-5607138?ONDATE=28.08.2021%2000>

3.[https://www.researchgate.net/publication/359230508_TEXNALOGIK_TA'LIM DA_INNOVATSION_TA'LIM-TEXNOLOGIYALARI_AHAMIYATI](https://www.researchgate.net/publication/359230508_TEXNALOGIK_TA'LIM_DA_INNOVATSION_TA'LIM-TEXNOLOGIYALARI_AHAMIYATI)